



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

20 25 yil “ 22 ” iyul \_\_\_\_\_

№ 222 \_\_\_\_\_

Toshkent sh.

**Davlat tibbiyot muassasalarida outsorsing asosida stomatologik xizmatlarni  
tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–88-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, **buyuraman:**

**1. Quyidagidalar:**

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 20-iyundagi “Respublikada aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 384-son qarori bilan “Davlat tibbiyot muassasalarida outsorsing asosida stomatologik xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi (keyingi o‘rinlarda – nizom);

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2025-yil 3-iyundagi “Stomatologiya yo‘nalishidagi davolash-profilaktika muassasalarini joylashtirishga, xonalariga, jihozlashga, mikroiklim ko‘rsatkichlariga, ventilyatsiya va konditsiyalashga, yoritishga, ushbu muassasalarda dezinfeksiya va sterilizatsiya tadbirlarini o‘tkazishga hamda xodimlarning shaxsiy gigienasiga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (0093-25-son SanQvaN) tasdiqlash to‘g‘risida”gi 12-son qarori (ro‘yxat raqami 355, 24.06.2025-yil) ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2. Davlat tibbiyot muassasalarida stomatologiya xizmatlarini outsorsing asosida ko‘rsatishning **namunaviy shartnomasi** 1-ilovaga muvofiq;**

Tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha outsorserga qo‘yiladigan minimal talablar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3. Tajriba-sinov tariqasida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli joriy qilinadigan hududlar **tuman (shahar) sog‘liqni saqlash bo‘limlari:****

a) tegishli hududiy sog‘liqni saqlash boshqarmalari bilan kelishilgan holda:

**o‘n kun muddatda** outsorsing asosida stomatologik xizmatlarni tashkil etiladigan tibbiyot muassasalari ro‘yxatini tasdiqlasin hamda stomatologik xizmatlarni ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub’ektlariga (keyingi o‘rinlarda – outsorser) foydalanishga beriladigan tibbiy jihozlar hamda SanQvaN talablari asosida xonalarni ajratsin;

**ikki hafta muddatda** outsorsing asosida stomatologik xizmatlarni tashkil etishda outsorserni tanlab olish bo‘yicha xarid hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda mazkur buyruq talablari asosida ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin.

Bunda, xarid hujjatlarni ishlab chiqishda quyidagilar inobatga olinadi:

oilaviy poliklinikaga biriktirilgan aholi soni, ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxati va ularning narxlari, bir yilda ko‘rsatiladigan stomatologik xizmatlarning o‘rtacha soni va boshqa ko‘rsatkichlarning belgilanishi;

mazkur buyruqning 2-ilovasida keltirilgan tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha Outsorserga qo‘yiladigan minimal talablar;

Tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan jami tushumlardan Buyurtmachiga tushadigan ulushi yuqori bo‘lgan takliflar.

b) **o‘n kun muddatda** outsorserni tanlab olish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida tegishli xarid turidan kelib chiqib, xarid jarayonini tashkil etsin;

v) stomatologiya xizmatlarini outsorsing asosida ko‘rsatish bo‘yicha tibbiyot muassasasi va outsorser o‘rtasida shartnoma imzolanishini ta‘minlasin;

g) pulli asosda ko‘rsatiladigan stomatologik xizmatlar uchun to‘lovlar tibbiyot muassasasining kassasiga to‘lanishi uchun tibbiyot muassasasi tomonidan alohida shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ini ochsin;

d) **uch hafta muddatda** tibbiyot muassasalarida pulli asosda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar uchun to‘lovlarni qabul qilish (kassa) joylarini tashkil etsin;

ye) outsorserni tanlash jarayonida kelishilgan ajratma miqdorini inobatga olgan holda tegishli to‘lovlarni har oyning dastlabki besh ish kunida outsorserga yo‘naltirsin.

4. Vazir o‘rinbosari F.Tashpulatov tajriba-sinov tariqasida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli joriy qilinayotgan hududlardagi tibbiyot muassasalarida pulli asosda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar uchun to‘lovlarni qabul qilish (kassa) joylarini tashkil etishda uslubiy hamda amaliy yordam ko‘rsatsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri va viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari:

a) tajriba-sinov hududlarida tibbiyot muassasalarini stomatologik xizmatlarni outsorsing asosida tashkil etish bo‘yicha xarid hujjatlarini ishlab chiqish hamda xarid jarayonini amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida shaffof tashkil etilishini **shaxsiy nazoratga** olsin;

b) kafolatlangan paketga kiritilmagan stomatologik xizmatlarning narxini outsorser tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi va viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari bilan kelishilgan holda tasdiqlasin hamda tibbiyot muassasalariga yetkazilishini ta’minlasin;

v) **2025-yil 1-sentabrga qadar** Sog‘liqni saqlash vazirligiga mazkur buyruq ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotni kiritсин.

**6. Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi (Z.Ermatov):**

a) **ikki hafta muddatda** kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlarning narxini tasdiqlasin hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalariga yetkazsin;

b) hisobot davrida kafolatlangan paket doirasida aholiga ko‘rsatilgan stomatologik xizmatlar bo‘yicha outsorser tomonidan hujjatlar taqdim etilgan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunida tegishli mablag‘larni tibbiyot muassasasining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazish choralari ko‘rsin.

Bunda, Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlar uchun to‘lovlar tibbiyot muassasasida qoldiriladigan ajratma miqdorini chegirib tashlagan holda amalga oshirilishi inobatga olinsin.

**7. Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva) o‘n kun muddatda:**

tibbiyot muassasalaridagi stomatologik xizmatlarni outsorsing asosida tashkil qilish uchun stomatologiya xonalari jihozlanishining yagona talablarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalariga yetkazilishini;

DMED axborot tizimiga outsorser tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar bo‘yicha barcha jarayonlarni qamrab oluvchi texnik topshiriq ma’lumotlarini va minimal talablarni Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasiga taqdim qilinishini ta’minlasin.

**8. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Eshnazarov) ikki hafta muddatda:**

Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator – “UZINFOCOM” MChJ bilan birgalikda Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti tomonidan taqdim etilgan ma’lumot asosida outsorser tomonidan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni DMED axborot tizimida shakllantirish imkoniyatini yaratsin;

outsorser DMED axborot tizimidan tibbiyot muassasasining tarkibiy bo‘linmasi sifatida qo‘shimcha to‘lovlarsiz foydalanishini ta’minlasin.

**9. Nazorat inspeksiyasi (A.Alijonov):**

outsorser tomonidan tashkil etilgan xizmatlarning sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga, shuningdek, texnik tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlar talablariga to‘liq muvofiqligini;

tibbiyot muassasalari tomonidan pulli asosda ko'rsatiladigan stomatologik xizmatlar uchun to'lovlar tibbiyot muassasasining kassasiga to'lanishini;

outsorser tomonidan aholidan qo'shimcha to'lov olinmasligini nazoratga olsin.

**10.** Mazkur buyruq ijrosi nazoratini vazir o'rinbosarlari O.Omonov hamda F.Tashpulatov zimmasiga yuklansin.

**Vazir**



**A.Xudayarov**

**Davlat tibbiyot muassasalarida ko'rsatiladigan  
stomatologiya xizmatlarini autsorsing asosida ko'rsatishning  
NAMUNAVIY ShARTNOMASI**

\_\_\_\_\_ tumani (shahri)

\_\_\_\_\_.\_\_\_\_\_. 202\_ y.

\_\_\_\_\_ - son oilaviy poliklinika (\_\_\_\_\_ tuman (shahar) markaziy shifoxonasi) nomidan (keyingi o'rinlarda – "**Buyurtmachi**") deb nomlanadi) Nizom asosida ish yurituvchi mazkur muassasa rahbari \_\_\_\_\_ bir tomondan hamda \_\_\_\_\_ nomidan (keyingi o'rinlarda – "**Autsorser**") deb nomlanadi) Ustav asosida ish yurituvchi direktori \_\_\_\_\_ ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

**I. Shartnoma predmeti**

1.1. Mazkur shartnomaning predmeti Autsorser tomonidan tegishli hududga birlashtirilgan aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari (keyingi o'rinlarda – kafolatlangan paket) doirasida stomatologik xizmatlarni ko'rsatish hamda pulli asosda tibbiy xizmatlarni tashkil etish hisoblanadi.

1.2. Kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlari Autsorser tomonidan Buyurtmachiga birlashtirilgan aholiga bepul asosda ko'rsatiladi va uning sarf-xarajatlari Buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

1.3. Kafolatlangan paketga kiritilmagan stomatologik xizmatlar Autsorser tomonidan aholiga pulli asosda (tibbiyot muassasasining kassasiga amalga oshirilgan to'lov asosida) ko'rsatiladi.

1.4. Autsorser shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlar ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi.

1.5. Autorsoring xizmatini ko'rsatish uchun Buyurtmachi tomonidan Autsorserga ajratiladigan maydon, tibbiy jihozlar va ularning holati bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

**II. Shartnoma qiymati**

2.1. Mazkur shartnomaning umumiy qiymati \_\_\_\_ so'mni tashkil etadi. Bunda shartnoma qiymati 1-ilovaga muvofiq kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlar ro'yxati bo'yicha ko'rsatiladigan har bir tibbiy xizmat turi, to'lov miqdori va prognoz rejasi asosida hisoblanadi hamda aholiga haqiqatda ko'rsatiladigan stomatologik xizmatlar uchun Autsorserga to'lanadi.

2.2. Mazkur shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan stomatologik xizmatlar narxiga barcha turdagi soliqlar, yig'imlar, bojlar hamda boshqa turdagi to'lovlar kiritiladi.

2.3. Tibbiy xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan jami tushumlar Autsorser tomonidan tanlov jarayonida berilgan takliflari asosida quyidagi ulushlarda taqsimlanadi:

- 1-ilovaga muvofiq kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlardan Autsorserga – \_\_\_\_ foizi, Buyurtmachiga – \_\_\_\_ foizi;

- pulli stomatologik xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlardan Autsorserga – \_\_\_\_ foizi, Buyurtmachiga – \_\_\_\_ foizi.

2.4. Mazkur shartnoma bilan Autsorserga avans to'lovlarini to'lash ko'zda tutilmaydi.

**III. Autsorser tomonidan ishlarni bajarish va qabul qilib olish**

3.1. Outsorser aholiga ko'rsatilgan barcha xizmatlar, shu jumladan mazkur shartnomaning 1- ilovasiga asosan kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlari ro'yxatiga muvofiq aholiga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar tibbiyot muassasasida joriy qilingan elektron axborot tizimiga kiritib boradi.

3.2. Outsorser tomonidan hisobot oyi davomida aholiga ko'rsatilgan barcha xizmatlar, shu jumladan mazkur shartnomaning 1- ilovasiga asosan kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlari ro'yxatiga muvofiq ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar bo'yicha hisobotni "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlar asosida keyingi oying birinchi ish kunida shakllantiradi hamda Buyurtmachiga bajarilgan ishlar bo'yicha hisob-fakturani hamda 2- ilovaga asosan aholiga ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) to'g'risidagi hisobotni ikki nusxada kiritadi.

3.3. Buyurtmachi taqdim etilgan hujjatlarni 2 ish kunida ko'rib chiqib, ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarni asosligini tekshirib chiqib, e'tiroz bo'lmagan taqdirda imzolaydi.

3.4. Buyurtmachi Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) bilan tibbiy xizmatlar xaridi bo'yicha tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq aholiga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar, shu jumladan Outsorser tomonidan ko'rsatilgan stomatologik xizmatlar to'g'risidagi tasdiqlangan oylik hisobotlarni keyingi oying dastlabki 5 (besh) ish kunida Jamg'armaga kiritadi.

#### **IV. To'lovlarni hisob-kitob qilish va to'lash tartibi**

4.1. Kafolatlangan paketga kiritilmagan stomatologik xizmatlarning narxi Outsorser tomonidan tegishli sog'liqni saqlash boshqarmalari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

4.2. Aholiga pulli asosda ko'rsatiladigan stomatologik xizmatlar uchun to'lovlar Buyurtmachining kassasiga to'lanadi.

4.3. Outsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlaridan tushgan tushumlar Buyurtmachining alohida shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlanadi.

4.4. Buyurtmachi Jamg'arma bilan tibbiy xizmatlar xaridi bo'yicha tuzilgan shartnomada belgilangan muddatlarda mazkur shartnomaning 2.3.-bandida belgilangan taqsimot asosida tibbiyot muassasasiga tushgan mablag'lar (Jamg'armadan mablag' tushgan sanadan boshlab) Outsorserga 5 ish kunida to'lab beradi.

4.5. Buyurtmachi pulli tibbiy xizmatlar asosida shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlangan mablag'lari hisobidan mazkur shartnomaning 2.3.-bandida belgilangan taqsimot asosida bajarilgan ishlar bo'yicha hisob-faktura tasdiqlangan kundan boshlab 5 ish kunida Outsorserga to'lab beradi.

#### **V. Tibbiy xizmat ko'rsatish shartlari va talablari**

5.1. Outsorsing asosida stomatologik xizmatlarni ko'rsatish faqat Outsorser tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, subpudratchilarni jalb qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

5.2. Stomatologik xizmatlar elektron navbat asosida ko'rsatiladi (shoshilinch holatlarda tibbiy xizmat navbatsiz amalga oshiriladi).

5.3. Outsorsing asosida stomatologik tibbiy xizmatlarni bepul va pulli asosda olish uchun oilaviy shifokor yo'llanmasi talab etilmaydi.

5.4. Outsorsing shartnomasi doirasida Outsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan xonalar, asbob-uskunalar va mebeldan foydalanganlik uchun ijara to'lovi nol qiymatda belgilanadi.

#### **VI. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari**

##### **6.1. Outsorser quyidagi huquqlarga ega:**

6.1.1. Buyurtmachining bino va inshootlarining ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.

6.1.2. Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish.

6.1.3. Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish.

6.1.4. Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini, jumladan, to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini talab qilish.

6.1.5. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun ishchi xodimlarni mustaqil ravishda tanlash, ishga qabul qilish, o'qitish va ularni boshqarish.

6.1.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun Buyurtmachi tomonidan zarur axborot va resurslarni o'z vaqtida taqdim etilishini talab qilish.

6.1.7. Tibbiyot muassasasida joriy qilingan "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimidan belgilangan vakolat doirasida Buyurtmachining tarkibiy bo'linmasi sifatida bepul foydalanish.

6.1.8. Qonunchilik hujjatlari va shartnoma asosida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

## **6.2. Outsorsening majburiyatlari:**

6.2.1. Buyurtmachi (tibbiyot muassasasi)ning outsorsingga olingan stomatolog xonasi va jihozlaridan maqsadli hamda oqilona foydalanish, saqlash va nosoz holga kelgan taqdirda ularni o'z hisobidan ta'mirlash.

6.2.2. Outsorsingga olingan stomatologiya xonalari bo'yicha kommunal to'lovlarni o'z mablag'lari hisobidan qoplash. Bunda, outsorser suv va elektr energiyasi iste'molini hisobga olish hisoblagich (schetchik)larini xonada o'rnatishi lozim;

6.2.3. Outsorsingga olingan stomatologiya xonalarini belgilangan yagona talablar asosida tashkil etish.

6.2.4. Outsorsingga olingan stomatologiya xonalari uchun talab etiladigan jihozlar tibbiyot muassasasida mavjud bo'lmagan taqdirda mazkur shartnomaning 6.2.6 bandiga asosan jihozlarni o'z hisobidan ta'minlash.

6.2.5. Outsorsing asosida ko'rsatilgan xizmatlar sifatiga javobgar bo'lish. Bunda, ko'rsatilgan xizmat (bajarilgan ish, davolangan kasallik) yuzasidan asorat bilan 30 kun mobaynida qayta murojaat qilgan aholiga Outsorser hisobidan mavjud asorat bartaraf qilinadi (xizmat qayta ko'rsatiladi).

6.2.6. Sog'liqni saqlash vazirining tegishli buyrug'iga muvofiq tasdiqlangan amaldagi tibbiy asbob-uskunalar va tibbiy jihozlar bilan jihozlash tabeliga muvofiq outsorsingga olingan stomatologiya xonalarini zarur jihozlar bilan ta'minlash.

6.2.7. Outsorsing asosida stomatologik xizmat ko'rsatishda rentgen (portativ) uskunasi soz holatda bo'lishini va doimiy ishlashini ta'minlash.

6.2.8. Outsorsing asosida stomatologik xizmat ko'rsatishda texnika va yong'in xavfsizligi, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga qat'iy rioya qilish.

6.2.9. Outsorsing asosida stomatologik xizmat ko'rsatishda tibbiy buyumlarni zararsizlantirish ishlarini tashkil etish.

6.2.10. Tibbiyot muassasasi hududiga kiradigan o'z ishchi xodimlari ro'yxatini oldindan Buyurtmachiga taqdim etish.

6.2.11. O'z ishchi xodimlari tibbiyot muassasasining ichki tartibi, sanitariya qoidalari hamda muassasada belgilangan ish vaqtiga to'liq rioya qilishni ta'minlash.

6.2.12. Tegishli litsenziya va boshqa ruxsatnomalar asosida aholiga tibbiy xizmatlarni sifatli ko'rsatish.

6.2.13. Stomatologik xizmatlarni belgilangan muddatda va sifatda, shartnoma talablariga muvofiq ko'rsatish.

6.2.14. Outsorsing asosida aholiga ko'rsatilgan barcha xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tibbiyot muassasasidagi "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimiga muntazam (tibbiy xizmat ko'rsatilgan vaqtda) kiritib borish;

6.2.15. Bemorlarning shaxsga doir va tibbiy ma'lumotlarining maxfiylikini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va oshkor etmaslik;

6.2.16. O'z ishchi va xodimlarining tegishli malaka va tajribaga ega bo'lishini hamda texnika xavfsizligiga o'qitilishini va rioya etishini ta'minlash;

6.2.17. Outsorsing asosida ko'rsatiladigan barcha xizmatlar, shu jumladan stomatologik xizmatlar uchun talab etiladigan barcha dori vositalari, tibbiy buyumlar, sarflov materiallarini o'z hisobidan ta'minlash;

6.2.18. Kafolatlangan paketga kiritilmagan (pulli asosida ko'rsatiladigan) stomatologik xizmatlarning narxlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotni Buyurtmachining kassasi yoniga joylashtirish;

6.2.19. Xizmat ko'rsatishda aholidan to'g'ridan-to'g'ri to'lov olmaslik;

6.2.20. Buyurtmachi va aholi shikoyatlarini belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish va ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish;

6.2.21. Qonunchilik hujjatlari va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

6.2.22. Topshirish-qabul qilish dalolatnomasida ko'rsatilgan xona, jihozlar, inventar buyumlari va uning qo'shimchalarini ishlaydigan va faol holatda qabul qilib, shartnoma oxirida yana ishlaydigan va faol holatda muassasaga topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan topshirish.

6.2.23. Tibbiyot muassasasi hududida o'ziga topshirilgan ish joyida ishlab chiqargan tibbiy chiqindilarning xavfsiz va atrof-muhitga zarar bermaydigan tarzda o'z mablag'lari hisobidan utilizatsiya qilish.

6.2.24. Xizmat ko'rsatish uchun foydalaniladigan xonada markazlashtirilgan suv ta'minoti bo'lmagan holda, autsorser o'z mablag'i hisobidan amaldagi sanitariya me'yorlari va texnik talablarga muvofiq doimiy oqar suv mavjudligini ta'minlaydigan tegishli uskunalarni o'rnatadi.

### **6.3. Buyurtmachining huquqlari:**

6.3.1. Ko'rsatilayotgan xizmatlarning belgilangan talab va standartlarga muvofiq ravishda, sifatli ko'rsatilishini talab qilish.

6.3.2. Outsorserning tadbirkorlik faoliyatiga bevosita aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini mustaqil ravishda hamda Jamg'arma bilan birgalikda nazorat qilish.

6.3.3. Shartnoma shartlariga Outsorser tomonidan rioya etilmasligi oqibatida vujudga kelgan kamchiliklarni Outsorser bartaraf etishini talab qilish.

6.3.4. Ko'rsatilgan xizmat, foydalanilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va sarflov materiallari sifatiga hamda jihozlar holatiga doir asoslangan shikoyatlarni bildirish va o'z vaqtida javob olish.

6.3.5. Xizmat ko'rsatish jarayonida xavfsizlik, sanitariya va gigiena qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish.

6.3.6. Shartnomani qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlarda bekor qilish.

6.3.7. Outsorserdan tegishli hisobotlarni va xizmat natijalari bo'yicha axborotni so'rash va olish.

6.3.8. Qonunchilik hujjatlari va shartnoma asosida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

### **6.6. Buyurtmachi majburiyatlari:**

6.6.1. Outsorser bilan tuzilgan shartnoma shartlariga amal qilish va ularni bajarish.

6.6.2. Outsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun shartnoma asosida belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

6.6.3. Outsorserga uning majburiyatlarini bajarishi uchun shart-sharoit yaratish, shu jumladan zarur ma'lumot va resurslarni taqdim etish.

6.6.4. Outsorsing asosida aholiga ko'rsatilgan barcha xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tibbiyot muassasasida joriy qilingan "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimiga kiritish uchun Outsorserga ushbu axborot tizimidan bepul foydalanish imkoniyatini yaratish.

6.6.5. Stomatologik xizmatlarni outsorsing asosida tashkil etish uchun zarur bo'lgan xonalar va jihozlarni aniqlash va outsorserga topshirish.

6.6.6. Kelib chiqqan nizo va kelishmovchiliklarni qonunchilikka muvofiq hal qilish.

6.6.7. Qonunchilik hujjatlari va shartnoma talablariga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

## **VII. Tomonlarning javobgarligi**

7.1. Outsorser tomonidan sanitariya qoidalari va me'yorlariga rioya etilishining monitoringini olib borish Buyurtmachining tegishli xodimlari zimmasiga yuklanadi.

7.2. Outsorsing xizmatlari sifatini nazorat qilish Buyurtmachi hamda Jamg'arma tomonidan shartnomada belgilangan shartlarda va muddatlarda amalga oshiriladi.

7.3. Outsorsing xizmatini ko'rsatish jarayonida shaxsga doir va shifokor siri hisoblangan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga tarqatmaslik bo'yicha javobgarlik Buyurtmachi va Outsorser zimmasiga yuklatiladi.

Bunda fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etilsa Outsorser tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

7.4. Outsorsing asosida aholiga ko'rsatilgan barcha xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tibbiyot muassasasida joriy qilingan "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimiga kiritish muntazam (tibbiy xizmat ko'rsatidigan vaqtning o'zida) kiritib bormaslik bo'yicha javobgarlik Outsorser zimmasiga yuklatiladi.

7.5. Xizmatlarni taqdim etish muddatlariga rioya qilmagan taqdirda, Buyurtmachi Outsorserdan kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida jarima undirishni talab qilishga haqlidir. Bunday holda, jarimaning umumiy miqdori ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 5 foizidan oshmasligi kerak.

7.6. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, Outsorser Buyurtmachidan kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 5 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima undirishni talab qilishga haqlidir.

7.7. Outsorser mazkur shartnoma doirasida ko'rsatiladigan xizmati davomida bemor, muassasa yoki biror boshqa uchinchi tomonga yetkazadigan barcha zararlardan moliyaviy va huquqiy jihatdan javobgardir.

7.8. Tomonlar mazkur shartnomani amalga oshirishda uning shartlari va ilovalari bo'yicha o'ziga yuklagan majburiyatlarini bajarmasligi oqibatida yuzaga kelgan zarar bo'yicha javobgardir.

7.9. Shartnoma shartlarini Outsorser (shu jumladan, xodimlari) tomonidan qo'pol ravishda buzish (tashxislash va davolash standartlariga rioya etmaslik, bemorning salomatligiga hamda tibbiyot muassasasining bino-inshootlari va jihozlariga ziyon yetkazish) holati uchun unga nisbatan qo'yidagi miqdorlarda jarima qo'llanilishiga asos bo'ladi:

- yetkazilgan zarar qiymatini aniqlash imkoni bo'lganda – ushbu zarar qiymati miqdorida;
- yetkazilgan zarar qiymatini aniqlash imkoni bo'lmaganda – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdorida.

## **VIII. Fors-major**

8.1. Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun shartnoma imzolangan kundan keyin bevosita ularga bog'liq (fors-major) bo'lmagan boshqarib bo'lmaydigan kuchlar, tabiiy ofat, yong'in, sel, zilzila, harbiy harakatlar va Hukumat qarori bilan e'lon qilingan favqulodda vaziyatlarda javobgarlikdan ozod qilinadi.

8.2. Tomonlar shartnoma bo'yicha majburiyatlarini yuqoridagi holatlar sababidan bajarishning imkonsizligi to'g'risida, uning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib, asoslantirib 5 (besh) ish kuni ichida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qiladilar.

8.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qiladigan davrga ko'chiriladi.

8.4. Fors-major holatiga asoslanayotgan Tomon, vakolatli davlat idorasining bunday holatlarni vujudga kelganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

## **IX. Nizolarni hal qilish tartibi**

9.1. Ushbu shartnoma shartlarini bajarishda kelib chiqadigan nizolar tomonlarning o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

9.2. Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan ushbu shartnoma bo'yicha kelib chiqqan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

## **X. Shartnomani amal qilish muddati**

10.1. Ushbu shartnoma tomonlar o‘rtasida imzolangan kundan kuchga kiradi va bir yil amal qiladi. Shartnoma amal qilish so‘ngi sanasi – \_\_.\_\_\_\_\_.202\_ yil.

10.2. Ushbu shartnoma tomonlar uchun bittadan bir xil yuridik kuchga ega 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo‘lib har ikki tomonda bir nusxadan saqlanadi.

10.3. Mazkur shartnoma asosida xizmat ko‘rsatilishi hamda ushbu shartnomaning muddati yakunlanganda foydalanish uchun berilgan xonalar (bino-inshootlar), jihozlar va boshqa tovar-moddiy boyliklar Outsorser tomonidan soz holatda Buyurtmachiga qaytariladi.

10.4. Tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar natijasida foydalanish uchun berilgan xonalar (bino-inshootlar), jihozlar va boshqa tovar-moddiy boyliklarga yetkazilgan zarar Outsorser tomonidan qoplanadi.

10.5. Outsorserga Buyurtmachi tomonidan o‘tkaziladigan yakuniy to‘lov mazkur shartnomaning 10.3. va 10.4.-bandlarida belgilangan shartlar bajarilganidan so‘ng amalga oshiriladi.

### **XI. Shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish**

11.1. Mazkur shartnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tomonlarning yozma kelishuviga asosan amalga oshiriladi va shartnomaga tomonlarning birgalikda yozma shaklda hamda imzolangan holda kiritgan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalari yuridik kuchga ega hisoblanadi.

11.2. Shartnomada belgilangan majburiyatlarini ijro etishda bir tomonlama bosh tortishga (rad etishga) va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

11.4. Shartnomani bekor qilish to‘g‘risida Buyurtmachini kamida ikki oy oldin yozma ravishda xabardor qilish va ushbu muddat tugaguniga qadar xizmat ko‘rsatishni uzluksiz tashkil etish.

11.5. Mazkur Shartnoma talablarining buzilishiga xususan, mazkur shartnomaning 7.5-bandida ko‘rsatilgan jarima qo‘llanilgandan so‘ng kamchiliklar Outsorser tomonidan bartaraf etilmagan taqdirda Buyurtmachi Outsorserni ogohlantirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.

### **XII. Boshqa shartlar**

12.1. Ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog‘liq barcha bildirishnoma va xabarlar yozma ravishda qog‘oz yoki elektron hujjatlar asosida rasmiylashtirilishi zarur.

12.2. Tomonlar manzillari va rekvizitlari o‘zgarganligi to‘g‘risida bir-birlarini 3 (uch) ish kuni ichida xabardor qiladilar.

12.3. Mazkur shartnoma bekor qilinganda, tomonlar 10 (o‘n) kun muddatda o‘zaro hisob-kitoblarni xatlovdan o‘tkazib (inventarizatsiya), debitor va kreditor qarzdorliklar bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblar to‘g‘risida solishtirma dalolatnoma tuzadilar. O‘zaro hisob-kitoblarni yakunlaydilar.

12.4. Tomonlar shartnoma shartlarini to‘liq bajarilishini ta‘minlash, aholini barcha qatlamlarini zarur tibbiy stomatologik yordam (xizmat) bilan qamrovi hamda uning sifatini oshirish maqsadida doimiy hamkorlik qiladilar.

12.5. Ushbu shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi va shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi:

1-ilova: Kafolatlangan paket doirasida tibbiyot muassasasida ko‘rsatiladigan stomatologik tibbiy yordam ro‘yxati va hajmi;

2-ilova: Aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) to‘g‘risida hisobot.

### **XIII. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari**

#### **Buyurtmachi**

“ \_\_\_\_\_ ”  
(tashkilot nomi)

#### **Outsorser**

“ \_\_\_\_\_ ”  
(tashkilot nomi)

Manzil: \_\_\_\_\_  
Telefon: \_\_\_\_\_

Manzil: \_\_\_\_\_  
Telefon: \_\_\_\_\_

STIR: \_\_\_\_\_  
ShHR: \_\_\_\_\_  
Bank nomi: \_\_\_\_\_  
MFO \_\_\_\_\_  
H/r: \_\_\_\_\_

STIR: \_\_\_\_\_  
Bank nomi: \_\_\_\_\_  
MFO \_\_\_\_\_  
H/r: \_\_\_\_\_

**Tibbiy muassasa rahbari** \_\_\_\_\_  
*imzo, muhr*

**Autsorser rahbari** \_\_\_\_\_  
*imzo, muhr*

## Kafolatlangan paket doirasida tibbiyot muassasasida ko‘rsatiladigan stomatologik tibbiy yordam ro‘yxati va hajmi

T/r	Tibbiy yordam turi	Kafolatlangan paket doirasida ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat nomi	Kafolatlangan paket doirasida ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat nomi	Bir birlik tibbiy xizmat narxi, ming so‘mda	Jami tibbiy yordam (xizmat)lar prognoz rejasi, soni
<b>Kattalarda</b>					
1.	Davolash, muolaja va amaliyotlar	Stomatologik yordam ko‘rsatish (og‘riqsizlantirish va infeksiya o‘choqlarini bartaraf qilish)	<b>1. Og‘riqsizlantirish:</b>		
			infiltratsion		
			o‘tkazuvchi		
			<b>2. Infeksiya o‘choqlarini bartaraf qilish, shu jumladan:</b>		
			Karies (bir tishda)		
			Pulpitlar, shundan: bir ildizli tishlar		
			ko‘p ildizli tishlar		
			Periodontitlar, shundan: bir ildizli tishlar		
			ko‘p ildizli tishlar		
			Paradont kasalliklar (butun og‘iz bo‘shlig‘ida)		
			Tishlarning nokarioz kasalliklari (plombalashga tayyorlash)		
			Gingivitlar (bir ko‘rik davomida)		
			Stomatitlar (bir ko‘rik davomida)		

Bolalarda			
Stomatologik yordam ko'rsatish (og'riqsizlantirish, infeksiya o'choqlarini bartaraf qilish va plomba qo'yish)	<b>1. Og'riqsizlantirish:</b>		
	infiltratsion		
	o'tkazuvchi		
	<b>2. Infeksiya o'choqlarini bartaraf qilish, shu jumladan:</b>		
	Karies (bir tishda)		
	Pulpitlar, shundan: bir ildizli tishlar		
	ko'p ildizli tishlar		
	Periodontitlar, shundan: bir ildizli tishlar		
	ko'p ildizli tishlar		
	Paradont kasalliklar (butun og'iz bo'shlig'ida)		
	Tishlarning nokarioz kasalliklari (plombalashga tayyorlash)		
	Gingivitlar (bir ko'rik davomida)		
	Stomatitlar (bir ko'rik davomida)		
	<b>3. Plomba qo'yish, shu jumladan:</b>		
	bir ildizli tishlar (davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tibbiy buyum va sarflov materiallari)		
ko'p ildizli tishlar (davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tibbiy buyum va sarflov materiallari)			

**Muassasa rahbari**

\_\_\_\_\_  
*imzo, muhr*

**Autorser**

\_\_\_\_\_  
*imzo, muhr*

202\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi  
 \_\_\_-son shartnomaga  
 2-ilova

**Aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) to‘g‘risida hisobot**

T/r	Xizmatlar turi	Kafolatlangan paket doirasida ko‘rsatiladigan tibbiy yordam (xizmat)lar hajmi	Ko‘rsatilgan tibbiy yordam (xizmat)lar, soni	Ko‘rsatilgan tibbiy yordam (xizmat)lar, summasi (so‘mda)

**Muassasa rahbari**

\_\_\_\_\_ *imzo, muhr*

**Autsorser**

\_\_\_\_\_ *imzo, muhr*

**Tibbiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha autorserga qo'yiladigan minimal  
TALABLAR**

1. Tibbiyot muassasasi nomi: \_\_\_\_\_
2. Manzili: \_\_\_\_\_
3. Autorserga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun  
ajratilayotgan xona, kv.metr: \_\_\_\_\_
4. Ajratilgan xonalar holati:  
(yaxshi, ta'mirtalab) \_\_\_\_\_

5. Buyurtmachi tomonidan Autorserga beg'araz foydalanish uchun beriladigan tibbiy jihozlar va boshqa asosiy vositalar ro'yxati ilova qilinadi. (*Bunda asosiy vositalarning nomi, inventar raqami, soni va amaldagi holati ko'rsatiladi*).

6. Stomatologiya xonasini jihozlash tabeli asosida zarur bo'lgan boshqa tibbiy jihozlar bilan (Buyurtmachi taqdim etgandan tashqari) to'liq ta'minlash Autorser tomonidan amalga oshiriladi.

7. Autorser tomonidan Shartnoma kuchga kirgandan so'ng 15 ish kunida kommunal to'lovlarning hisobini alohida yuritish uchun hisoblagichlar (schetchik) o'rnatiladi.

8. Autorser stomatologik xona oldida aholini qabul qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratadi, stomatologik xonaga kirishda aholini kutishi uchun zarur o'rindiqlar bilan ta'minlaydi, pulli xizmatlar tasdiqlangan narhlarini (preyskurant) aholi ko'radigan joyga osadi.

9. Tibbiy xizmatlarni ko'rsatishda tashxislash va davolash standartlariga va klinik protokollarga rioya etadi, bemorning salomatligiga hamda tibbiyot muassasasining bino-inshootlari va jihozlariga ziyon yetkazilishining oldini olish choralarini ko'radi.

10. Autorser texnik talablar doirasida xonani zarur kompyuter texnika vositalari bilan ta'minlaydi hamda aholiga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tibbiyot muassasida joriy qilingan elektron axborot tizimiga kiritadi.

11. Kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlar va pulli asosda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni ko'rsatish uchun talab etiladigan barcha dori vositalari, tibbiy buyumlar, sarflov materiallari autorser tomonidan ta'minlanadi.

Bunda, stomatologik xizmatlar ko'rsatishda ishlatiladigan barcha dori vositalari, tibbiy buyumlar, sarflov materiallari O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan tartibda ro'yxatga o'tgan bo'lishi lozim.

12. Autorser xonalarni va undagi tibbiy asbob-uskunalar va jihozlarni soz holatda saqlanishini hamda lozim bo'lganda ta'mirlanishini amalga oshiradi.

13. Shartnoma muddati yakunlangandan so'ng 5 ish kunida topshirish-qabul qilish dalolatnomasida ko'rsatilgan Buyurtmachiga tegishli mulkni, xususan, stomatologiya xonasini ta'mirlangan holda, tibbiy jihozlar va boshqa inventarlarni soz holda topshirish talab etiladi.

14. Autorser tomonidan tanlov jarayonida berilgan takliflar asosida Buyurtmachiga tushadigan tushumlarning eng kam miqdori quyidagi ulushlarda taqsimlanadi:

kafolatlangan paketga kiritilgan stomatologik xizmatlar ko'rsatishdan– 10 foizi;

pulli stomatologik xizmatlar ko'rsatishdan– 20 foizi.

**Bunda, tanlov jarayonida Buyurtmachiga tushadigan tushumlar miqdorini eng yuqori berilgan taklif g'olib tanlashning asosiy baholash mezonlari hisoblanadi.**

## «ТАСДИҚЛАЙМАН»

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни  
сақлаш вазири, Давлат тиббий суғуртаси  
жамғармаси Кузатув кенгаши раисининг  
ўринбосари



А.А. Худаяров

“18” 08 2025 йил

Давлат тиббий суғуртаси жамғармаси Кузатув кенгаши мажлисининг

104 -сонли БАЁНИ

“18” 08 2025 йил

Тошкент шаҳри

**Раислик қилувчи:** А.А.Худаяров – Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазири, Давлат тиббий суғуртаси жамғармаси Кузатув кенгаши раисининг ўринбосари

**Қатнашдилар:** Давлат тиббий суғуртаси жамғармаси Кузатув кенгаши аъзолари

### КУН ТАРТИБИ:

**Аутсорсинг асосида кафолатланган пакетга киритилган стоматология хизматларининг нарҳини ҳамда 2025 йил II-ярим йил учун режалаштирилган маблағларни тасдиқлаш тўғрисида**

(Т.А.Алиева, А.Худаяров, Х.Турахужаев, О.Фазилкаримов, Ф.Тошпулатов, З.Эрматов)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 майдаги ПФ-88-сон Фармонининг 3-илоvasи Соғлиқни сақлаш тизимини ташкил этишнинг янги моделини тажриба-синов тариқасида жорий қилиш бўйича чора-тадбирлар режасида тажриба-синов лойихаси худудлари оилавий поликлиникаларида стоматолог иш жойларини аутсорсинг асосида хусусий секторга бериш талабларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш белгиланган.

Бунда, бирламчи тиббий санитария ёрдами муассасаларида Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қопланадиган тиббий ёрдамнинг кафолатланган ҳажмлари рўйхатига киритилган стоматолог хизматлари Давлат тиббий суғуртаси жамғармаси томонидан қопланишини инобатга олиш кўрсатилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 20 июндаги 384-сон қарори 7-илоvasи билан тасдиқланган “Давлат тиббиёт муассасаларида аутсорсинг асосида стоматологик хизматларни кўрсатиш тартиби тўғрисидаги низом”нинг 3-боб 13-бўлимида кафолатланган пакетга киритилган стоматологик

хизматларнинг нархи Давлат тиббий суғуртаси жамғармаси (кейинги ўринларда-Жамгарма) томонидан белгиланади ҳамда ҳар молия йили учун қайта кўриб чиқилиши кўрсатилган.

Юқоридаги масалалар кўриб чиқилиб, йигилиш **қарор қилади:**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 20 июндаги 384-сон қарори 7-илоvasи билан тасдиқланган “Давлат тиббиёт муассасаларида аутсорсинг асосида стоматологик хизматларни кўрсатиш тартиби тўғрисидаги низом”нинг 3-боб 13-бўлимига асосан, Жамғарма томонидан ишлаб чиқилган кафолатланган пакетга киритилган стоматологик хизматлар нархи 1-иловага мувофиқ келишилсин.

Бунда, қарор талабига кўра кафолатланган пакетга киритилган стоматологик хизматлар нархларни ҳар молия йили учун қайта кўриб чиқилиши белгиланганлиги назарда тутилсин.

3. Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қопланадиган тиббий ёрдамнинг кафолатланган ҳажмлари рўйхатига киритилган стоматология хизматлари учун 2025 йил II-ярим йил учун ажратиладиган маблағлар 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Ушбу ажратилган маблағларни тегишлилиги бўйича бирламчи тиббий санитария муассасалари учун, шу даврга ажратиладиган маблағлар ҳисобидан чегириб қолиниши ҳамда аутсорсерлар томонидан Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 19 июндаги 382-сон қарорига асосан тасдиқланган “Бирламчи тиббий-санитария ёрдами муассасаларида Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ҳисобидан қопланадиган тиббий ёрдамнинг кафолатланган ҳажмлари” доирасида кўрсатилган стоматологик хизматлар учун 1-иловага мувофиқ тасдиқланган нархлар асосида 2-иловага мувофиқ ажратилган маблағлар доирасида ҳар ойда белгиланган тартибда молиялаштириб борилиши таъминлансин.

4. Ушбу мажлис баёни ижросини назорат қилиш Соғлиқни сақлаш вазири, Кузатув кенгаши раисининг ўринбосари А. Худаяров ва Жамғарма Ижро этувчи директори З.Эрматов зиммаларига юклатилсин.

Соғлиқни сақлаш вазири,  
*Кузатув кенгаши раисининг ўринбосари*

А.Худаяров

Иқтисодиёт ва молия вазирининг  
ўринбосари



О.Фазилкаримов

Соғлиқни сақлаш вазирининг  
ўринбосари



Ф.Ташпулатов

Ўзбекистон Республикаси Рақобатни  
ривожлантириш ва истеъмолчилар  
ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси раиси



Х.Турахужаев

Ўзбекистон нодавлат нотижорат  
ташкилотлари миллий ассоциацияси раиси



К.Ишанходжаев

Жамғарманинг ижро этувчи директори в.в.б.,  
*Кузатув кенгашининг котиби*



Ш. Иноятлов

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 19.05.2025 йилдаги ПФ-88-сонли Фармониغا асосан Соғлиқни сақлаш тизимини ташкил этишнинг янги модели тажриба-синов тариқасида жорий қилинадиган 15 та туман (шаҳар)лардаги оилавий поликлиникаларда аутсорсинг асосида стоматология хизмати учун Давлат бюджети ҳисобидан қопланадиган тиббий ёрдамнинг кафолатланган ҳажмлари рўйхатига киритилган стоматологик тиббий хизматларнинг ХАРИД НАРХЛАРИ

Кафолатланган пакет доирасида кўрсатиладиган стоматологик тиббий хизмат номи	Кафолатланган пакет доирасида кўрсатиладиган тиббий хизмат номи	Харид нархи, ҚҚС <sub>сиз</sub>	ҚҚС
Катталарга стоматологик ёрдам кўрсатиш (оғриксизлантириш ва инфекция ўчоқларини бартараф қилиш)	<b>1. Оғриксизлантириш:</b>		
	инфилтрацион	31 100	3 732
	ўтказувчи	32 700	3 924
	<b>2. Инфекция ўчоқларини бартараф қилиш, шу жумладан:</b>		
	2.1 Кариеc - кариоз ковакни тозалаш, ишлов ва шакл бериш (пломбалашга тайёрлаш) (бир тишда)	67 500	8 100
	2.2 Пульпитлар - кариоз ковакни тозалаш, пульпа тўқимасини олиб ташлаш ва бўшлиққа ишлов бериш шундан: - бир илдизли тишлар	87 000	10 440
	- кўп илдизли тишлар	126 900	15 228
	2.3 Периодонтитлар - кариоз ковакни ҳамда пульпа бўшлиғини тозалаш, яллиғланиш жараёнини чиқариб ташлаш шундан: - бир илдизли тишлар	101 200	12 144
	- кўп илдизли тишлар	143 900	17 268
	2.4 Пародонт касалликлар - тиш атрофи тўқималарида яллиғланиш жараёнларини бартараф этиш, шу жумладан тиш тошларини тозалаш, ишлов бериш. (бир қатнов)	38 000	4 560
	2.5 Тишларнинг нокариоз касалликлари - ковакни тозалаш, ишлов ва шакл бериш (пломбалашга тайёрлаш) (бир тишда)	58 500	7 020
	2.6 Гингивитлар - миқлардаги яллиғланиш ўчоқларини бартараф этиш, шу жумладан тиш тошларини тозалаш, ишлов бериш (бир кўрик учун).	45 700	5 484
	2.7 Стоматитлар - оғиз бўшлиғи шиллик пардаларидаги яллиғланишларни бартараф этиш (бир кўрик давомида).	29 800	3 576
	18 ёшгача болаларга стоматологик ёрдам кўрсатиш (оғриксизлантириш, инфекция ўчоқларини бартараф қилиш ва пломба қўйиш)	<b>1. Оғриксизлантириш:</b>	
инфилтрацион		31 100	3 732
ўтказувчи		32 700	3 924
<b>2. Инфекция ўчоқларини бартараф қилиш, шу жумладан:</b>			
2.1 Кариеc - кариоз ковакни тозалаш, ишлов ва шакл бериш (пломбалашга тайёрлаш) (бир тишда)		72 100	8 652
2.2 Пульпитлар - кариоз ковакни тозалаш, пульпа тўқимасини олиб ташлаш ва бўшлиққа ишлов бериш шундан: - бир илдизли тишлар		90 000	10 800
- кўп илдизли тишлар		134 400	16 128
2.3 Периодонтитлар - кариоз ковакни ҳамда пульпа бўшлиғини тозалаш, яллиғланиш жараёнини чиқариб ташлаш шундан: - бир илдизли тишлар		105 700	12 684
- кўп илдизли тишлар		146 900	17 628
2.4 Пародонт касалликлар - тиш атрофи тўқималарида яллиғланиш жараёнларини бартараф этиш, шу жумладан тиш тошларини тозалаш, ишлов бериш. (бир қатнов)		38 000	4 560
2.5 Тишларнинг нокариоз касалликлари - ковакни тозалаш, ишлов ва шакл бериш (пломбалашга тайёрлаш) (бир тишда)		61 500	7 380
2.6 Гингивитлар - миқлардаги яллиғланиш ўчоқларини бартараф этиш, шу жумладан тиш тошларини тозалаш, ишлов бериш (бир кўрик учун).		45 700	5 484
2.7 Стоматитлар - оғиз бўшлиғи шиллик пардаларидаги яллиғланишларни бартараф этиш (бир кўрик давомида).		32 800	3 936
<b>3. Пломба қўйиш, шу жумладан:</b>			
бир илдизли тишлар учун (давлат рўйхатидан ўтказилган тиббий буюм ва сарфлов материаллари) (стеклоиномер цемент ва ундан юқори сифатли)	41 700	5 004	
кўп илдизли тишлар учун (давлат рўйхатидан ўтказилган тиббий буюм ва сарфлов материаллари) (стеклоиномер цемент ва ундан юқори сифатли)	60 300	7 236	

Давлат тиббий суғуртаси жамғармаси  
 Кузатув кенгашининг " 18 " " 08 " 2025 йилдаги  
 104 -сонли мажлиси баёнига  
 2-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг 19.05.2025 йилдаги ПФ-88-сонли Фармониغا асосан Соғлиқни сақлаш тизимини ташкил этишнинг янги модели тажриба-синов тариқасида жорий қилинадиган 15 та туман (шаҳар)лардаги оилавий поликлиникаларда аутсорсинг асосида стоматология хизмати учун 2025 йил 2-ярим йиллик учун ажратиладиган Маблағлар миқдори**

№	Худуд номи	Шаҳар ва туманлар номи	Оилавий поликлиника сони	Мавжуд стоматология хоналари сони	2025 йил 1-ярим йилликда		2025 йил 2-ярим йиллик учун ажратилиши назарда тутилган маблағ жами (минг сўм)
					Стоматология хизмат кўрсатилган фуқаролар сони (минг нафар)	Сарфланган маблағ миқдори (минг сўм)	
1	Андижон вилояти	Асака тумани	19	21	30,2	661 206,0	717 761,0
2	Бухоро вилояти	Ғиждувон тумани	31	26	60,2	883 608,0	957 707,0
3	Жиззах Вилоят	Ғаллаорол туман	23	14	20,5	707 785,0	767 670,0
4	Қашқадарё вилоят	Китоб туман	29	13	25,8	631 852,0	687 456,0
5	Навоний вилояти	Хатирчи туман	33	34	43,0	1 119 683,0	1 216 517,0
6	Наманган вилояти	Чортоқ туман	20	17	23,7	681 153,0	738 678,0
7	Сирдарё вилоят	Сирдарё туман	15	7	6,6	191 998,0	208 195,0
8	Самарқанд вилоят	Булунғур туман	19	16	13,4	518 950,0	562 591,0
9	Самарқанд вилоят	Иштихон тумани	25	18	18,9	691 372,0	749 343,0
10	Самарқанд вилоят	Самарқанд шаҳар	20	30	26,2	682 630,0	757 146,0
11	Сурхондарё вилояти	Денов тумани	33	20	18,0	766 662,0	835 195,0
12	Тошкент вилояти	Янгийўл шаҳар	2	4	18,1	263 157,0	285 281,0
13	Хоразм вилояти	Шовот тумани	17	10	13,2	503 026,0	547 736,0
14	Қорақалпоғистон Рес.	Чимбой тумани	11	12	15,9	595 608,0	645 641,0
15	Фарғона вилояти	Қува тумани	21	14	61,8	615 573,0	667 300,0
<b>Жами</b>			<b>318</b>	<b>256</b>	<b>395,4</b>	<b>9 514 263,0</b>	<b>10 344 217,0</b>